

INSON EKOLOGIYASI

Xo'jamova Shohista Eltayevna
IIV Qashqadaryo akademik litseyi
Biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada inson ekologiyasi va uni o'rganish uslublari, tashqi muhit omillarining inson organizmiga ta'siri, ekologik muvozanatning buzilish sabablari, insonning moslashuvi va ekologiyasi, bugungi kunda inson salomatligi jamiyatning murakkab tarixi va uning hozirgi taraqqiyoti to'g'risida batafsil bayon qilingan.

Kalit so'zlar: inson ekologiyasi, tashqi muhit omillari, inson salomatligi, biologik munosabatlar, tabiiy resurslar, ekologik ta'lim konsepsiyasi.

KIRISH

Ma'lumki, inson ekologiyasi deb aytganimizda tashqi muhitdagi xilma-xil omillarning ta'siri sababli inson jismida sodir bo'ladigan o'zgarishlarni tushunamiz. Inson ekologiyasi juda serqirrali fan hisoblanib, tashqi muhitning hamma omillari, havo harorati, yorug'lik, namlik, radiatsiya, shovqin, vaznsizlik holati, hamda har-xil tabiiy ofatlar, zilzila, dovul, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'inlar hamda tirik organizmlarning o'zaro bir-biriga ta'siri tushuniladi. Bu hamma omillarning ta'siri insonni istagiga bog'liq emas. Bulardan tashqari insonlar o'zlari bunyod qilgan korxonalar, irrigatsiya inshootlari, transport vositalaridan chiqqan zaharli chiqindilar, qishloq xo'jaligida keng foydalanilgan kimyoviy moddalar ham havoni, suvni, yerni, oziq-ovqat mahsulotlarining sifatini buzib inson sog'ligiga katta zarar keltiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inson ekologiyasi yoki antropoekologiya ijtimoiy jamiyatning markaziy bo'lagi, uning ijtimoiy-tabiiy va tabiiy-ilmiy asosi sanaladi. Inson ekologiyasi o'zida demografiya, tibbiyot, morfologiya, antropologiya, genetikaning tegishli qarashlarini jamlashtiradi. Bu fanlar tadqiqot ob'ekti bir ekanligi ostida bir bo'lakda uyg'unlashadi. O'sha ob'ekt inson bo'lib, u ikki dunyo tabiiy va ijtimoiy dunyoga tegishli nodir jonzotdir. Bunda shu narsani aytish joizki, «inson - tabiiy muhit» masalasi munosabati bilan kishini o'rganishda e'tibor qaratiladigan muhim ob'ekt umuman inson va hatto uning ekologiyasi emas, balki inson ekologiyasining tabiat bilan aloqasi yordamida paydo bo'ladigan qismidir.

Inson ekologiyasi bu majmui fanlararo ilmiy yo'nalishdir. U insonlar populyatsiyalarining atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri qonuniyatlarini, bu o'zaro aloqa

ta'sirida aholining o'sishini, maqsadga yo'naltirilgan boshqaruv masalalarini, aholi salomatligini saqlash va takomillashtirish masalalarini tadqiq qiladi.

Inson ekologiyasida, uning asosiy yo'nalishlarida ijtimoiy maqsadli negiz ustun turishi aniq, zero insonning tabiat bilan jamiyat yordamida bevosita o'zaro ta'sirini o'rganish bu fan predmetining ob'ektiv mohiyatini tashkil qiladi. Shu nuqtai nazardan inson ekologiyasi-bu ijtimoiy ekologiyaning Inson va odamlar populyatsiyasi bilan uni o'rab olgan tabiiy va ijtimoiy muhit o'zaro ta'sir qonuniyatlarini o'rganadigan bo'limi yoki antropodemoekotizim ichidagi ijtimoiy - biologik munosabatlar to'g'risidagi ilmiy yo'nalishdir.

NATIJALAR

Hozirgi vaqtda inson salomatligi jamiyatning murakkab tarixi va uning bugungi taraqqiyoti natijasi ekanligi allaqachon aniqlashgan. Shu sababdan tabiiy sanitariya gigiyena tadbirlarining birontasi ham ular qanchalar Ilmiy asoslangan va texnikaviy takomillashgan bo'lmasin, o'z o'zicha jamiyat a'zolari sog'ligini saqlash va shakllantirish, muhofaza qilishni ta'minlay olmaydi. Butun jamiyatning ijtimoiy ishlab chiqarish iqtisodiyot tuzilmasini ilmiy tashkil etish, mehnat dam olish muhitlarini, ma'naviy va jismoniy tarbiya sharoitlarini vujudga keltirish, hayot tarzi madaniyatini takomillashtirish bularning barchasi sog'liqni muhofazalash va mustahkamlashning sharti va garovidir. Bu masalalar jamiyatning tabiiy sharoitlar bilan o'zaro ta'siri shu ta'sirni rivojlantirishga yo'naltirilgandagina hal qilishi mumkin.

MUHOKAMA

Bunda barcha jug'rofiy mintaqalar, Jonli va jonsiz tabiatdagi hamma jarayonlar, sayyoramizning hamma sohalari jamlab olinadi. Bu yerda gap tabiatni shunchaki muhofazalash haqida emas, balki inson tabiat va ular o'rtasidagi muvofiqlikni yanada takomillashtirish uchun qulay ijtimoiy, ekologik sharoitlar yaratish maqsadida tabiatni asrab avaylash va shakllantirish to'g'risida bormoqda. Tabiatni muhofaza qilish eng oliy maqsad har taraflama takomillashgan inson va insoniyat Jamiyatiga erishishning eng asosiy vositalaridan biridir. Inson ekologiyasi birgina biologik qonunlarga bo'ysunmaydi va bu qonunlarni ijtimoiy qonunlar bilan o'zaro aloqasisiz uni anglab bo'lmaydi

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini tartibga soluvchi qonun hujjatlarini rivojlantirishga avvaldam jiddiy e'tibor berib kelinmoqda. Shu niyatda tabiatni muhofaza qilish va ekologiya sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bilan shug'ullanadigan ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, shuningdek uning negizida tabiiy resurslar vazirligi faoliyat olib bormoqda. Mustaqillik yillarida ekologik ta'lim

konsepsiyasi, muhofaza qilinadigan hududlar haqida, ekologik nazorat, ekspertiza va boshqa ekologik masalalar bo'yicha me'yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. T.E. Ostanqulov, I.X. Xamdamiyov, I.T.Ergashev, K.Q.Shermuxammedov “Biologiya va genetika” Toshkent 2014.
2. P.X.Xoliqov, A.Q.Qurbonov, A.O.Daminov, M.V.Tarinova “Tibbiy biologiya va genetika” Toshkent 2018.
3. P.S.Sultonov “Ekologiya va atrof – muhitni muhofaza qilish asoslari” Toshkent 2007.
4. T.Raximov, Tilovov “Inson ekologiyasi” Qarshi 2015.
5. Ergashev A., Ergashev T. Ekologik xavfsizlik. Insonning yashash muhiti. “Chinor ENK” T. 2007.